

SAYLOV MADANIYATI-INSON MA'NAVIYATINING AJRALMAS QISMI***Yangiboyev Ilyos Boltayevich****Kitob tuman ixtisoslashtirilgan maktab-
internatining huquq fani o'qituvchisi*

Har bir demokratik jamiyatning taraqqiyoti fuqarolarning siyosiy faolligi, huquqiy ongi va yuksak ma'naviyatiga bog'liq. Saylov jarayoni esa ana shu fazilatlarning aaliy ifodasidir. Saylov madaniyati nafaqat ovoz berish jarayonida ishtirok etish, balki fuqarolarning o'z huquq va burchlarini chuqur anglab, mamlakat taqdiri uchun mas'uliyat bilan qaror qabul qilishini ham anglatadi. Shu bois saylov madaniyati inson ma'naviyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Saylov madaniyati deganda fuqarolarning saylov qonunchiligiga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, nomzodlar faoliyatini xolis baholashi, ovoz berish huquqidan ongli va mas'uliyat bilan foydalanishi tushuniladi. Yuksak saylov madaniyatiga ega bo'lgan jamiyatda fuqarolar davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etadi, mamlakat taraqqiyotiga befarq bo'lmaydi.

Ma'naviyat esa insonning axloqiy fazilatlari, dunyoqarashi, vatanparvarligi, adolatparvarligi va fuqarolik ma'uliyatini o'zida mujassam etadi. Ma'naviy barkamol inson har qanday masalagaongli yondashadi, shaxsiy manfaat bilan bir qatorda jamiyat manfaatini ham ustuvor deb biladi. Aynan ana shunday fazilatlar saylov jarayonida ham namoyon bo'ladi.

Saylovlarda faol ishtirok etish fuqarolik burchini bajarishning muhim ko'rinishidir. Har bir fuqaro o'z ovozi mamlakat kelajagini belgilashda muhim o'rin tutishini his qilishi kerak. Chunki saylov natijasida xalq ishonchini qozongan vakillar davlat boshqaruvida faoliyat yuritadi va xalq manfaatlarini himoya qiladi. Shu sababli saylovda befarq bo'lmaslik, nomzodlarning dasturlarini o'rganish, ularning bilim va salohiyatini baholab ovoz berish yuksak saylov madaniyatining belgisi hisoblanadi.

Yoshlar orasida saylov madaniyatini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki yoshlar jamiyatning eng faol va istiqbolli qatlamidir. Ularning siyosiy bilimlarini oshirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash kelajakda demokratik jamiyatning yanada mustakam bo'lishiga xizmat qiladi. Ta'lim muassasalari, oila va mahalla bu borada muhim tarbiyaviy vazifani bajaradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolarning saylov huquqlarini ta'minlash, saylovlarning ochiq, oshkora va adolatli o'tishini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, saylov jarayonining shaffofligini ta'minlash ham fuqarolarning saylovga bo'lgan

ishonchini yanada mustahkamlamoqda. Bu esa saylov madaniyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Saylov madaniyati insonning ma'naviy yetukligi bilan chambarchas bog'liq. Ma'naviyatli inson qonunlarga hurmat bilan qaraydi, boshqalarning fikrini e'zozlaydi, adolat va halollik tamoyillariga amal qiladi. Bunday fuqarolar jamiyatda tinchlik, barqarorlik va hamjihatlikni mustahkamlashga o'z hissasini qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda, saylov madaniyati inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, demokratik jamiyatning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Yuksak ma'naviyatli, huquqiy bilimga ega va fuqarolik mas'uliyatini chuqur his etadigan inson saylovlarda faol va ongli ishtirok etadi. Har bir fuqaroning mas'uliyat bilan bergan ovozi mamlakatning buguni va ertangi taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shunday ekan, saylov madaniyatini yuksaltirish, yosh avlodni huquqiy va ma'naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalash barchamizning muhim vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. O'zbekiston. 2023.
2. Sh. Mirziyoyev. "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" (4-jild). T. "O'zbekiston", 2020.
3. Sh. Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". T. "O'zbekiston", 2023.
4. "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni.